

Xotamov Zoirjon Tohir o'g'li
Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi, kapitan

AMIR TEMUR SALTANATIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI O'RNINI VA AHAMIYATI

Bugungi globallashtirish jarayonida yuzaga kelayotgan xalqaro, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning murakkablashuvi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ijtimoiy munosabatlariga "jamoat xavfsizligi" iborasi kirib keldi va keng qo'llanila boshlandi. Chunki, jamoat xavfsizligi mamlakatimiz milliy xavfsizligining muhim bo'g'ini hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "...Barchamizga yaxshi ma'lumki, hozirgi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Insoniyatning taqdiri va kelajagiga tahdid solayotgan xavf-xatarlar tobora kuchayib bormoqda. Jahon miqyosida shafqsiz raqobat, turli ziddiyat va qarama-qarshiliklar, savdo urushlari g'oyat keskin tus olmoqda"[1] degan fikrlari xavfsizlikni ta'minlash dolzarb muammo ekanligidan dalolat beradi.

Shu boisdan, hozirgi kunda yuzaga kelayotgan yangi taxdid va xavflarga nisbatan jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini tashkiliy-huquqiy jihatdan takomillashtirib borish, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Jamoat xavfsizligi bu shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini jinoiy va boshqa huquqqa hilof harakatlar, ijtimoiy nizolar, tabiiy ofatlar, zilzilalar, epidemiyalar, epizootiyalar, katta falokatlar, avariya va yong'inlar natijasida kelib chiqadigan favqulodda vaziyatlar oqibatlaridan himoyalanganlik holatidir.[2]

Jamoat xavfsizligini ta'minlash tushunchasi kecha yoki bugun paydo bo'lgan emas. O'rta asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud bo'lgan barcha davlatlar hukumdorlarining mamlakatda jamoat xavfsizligini ta'minlash doimiy ravishda kun tartibidagi asosiy masalalardan biri hisoblangan. Jamoat xavfsizligi O'zbekiston hududida qadimda mavjud bo'lgan Qadimgi Baqtriya (mil. av. VII asr), Xorazm (mil. av. VII asr), Kushon (mil. av. I asr), Turk xoqonligi (VI asr), Amir Temur saltanati (XIV asr oxiri - XV asr boshlari) kabi davlatlarning har birida o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etgan.

Mamlakatda jamoat xavfsizligini ta'minlash bevosita davlat, xalq va jamiyatning tinchligi, taraqqiyoti hamda farovonligini ta'minlashga xizmat qilgan. Jumladan, Amir Temur saltanatida yuksak davlatchilik ta'limotini yaratgan shaxs sifatida ajralib turadi. Amir Temur joriy etgan boshqaruv asoslari o'z davrida nafaqat mamlakat fuqarolarining manfaatlarini hamda farovonligi uchun xizmat qilgan, balki G'arb va Sharq davlatlari o'rtasidagi munosabatlar, xalqaro iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy barqarorlikka ham samarali ta'sir ko'rsatgan. Amir Temur savdo-iqtisodiy aloqalarni jonlantirish uchun bozorlar, savdo rastalari, tim va ravoqlar qurdirgan. Xalqaro savdoni rivojlantirish maqsadida Buyuk ipak yo'li qayta ta'mirlangan va kelib-ketuvchilarning xavfsizligi ta'minlangan. Bu tadbirlar Sharq va G'arb mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirishga turtki bergan. Bu haqida Amir Temur o'z tuzuklarida "Raiyatini o'zimga qaratib oldim. Har mamlakatning



yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o'zlariga loyiq, ishlar topshirdim hamda haddilaridan oshishlariga yo'l qo'ymadim. Har elning ulug'larini va sharaf-e'tiborli kishilarini hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu-sitam yo'lini to'sdim",[3] degani ham mamlakatda qonun ustuvorligi, huquq-tartibotning mustahkam tarzda o'rnatilganligini ko'rishimiz mumkin.

Mahalliy boshqaruvda muxtasiblar ham muhim ro'l o'ynagan. Ular musulmonlar tomonidan shariat qonun-qoidalarining bajarilishi, bozorda narx-navo va toshutarozilarning to'g'ri yoki noto'g'riligini nazorat qilib turuvchi mansabdor hisoblangan. Muxtasiblar ma'naviy ishlarni ham nazorat qilishgan. Moliya va qishloq xo'jaligini boshqarish ishlari bilan shug'ullangan mahalliy kichik ma'murlar aminlar (lugaviy ma'nosi ishonchli kishilar) deb atalgan. Ular mahalliy hududlarda ekin yerlari, soliq yig'ish vakolatiga ega bo'lishgan.[4]

Bundan tashqari, Amir Temur o'z tuzuklarida "Amr qildimki, har yerda, viloyatu shahar va lashkar urdusida kundalik voqealarni yozuvchilarni tayin etsinlarki, hokimlar, raiyat, sipoh, o'z lashkarlari va yot lashkarning xatti-harakati haqida meni xabardor qilsin. Atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, chetdan kirgan, chetga chiqqan yot kishilar, har turli mamlakatlardan kelgan karvonlar, qo'shni podshoxlar, ularning gap-so'zlari, ishlari haqida xabarlar va uzoq o'lkalardan bo'lib, mening dargohimga yuzlangan ulamo, fuzalo haqidagi so'zlarni to'g'rilik bilan menga yozib tursinlar", deydi.[5] Yuqoridagi dalillarga tayanib, Amir Temur saltanatida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati ixtisoslashganligini ko'rishimiz mumkin. Ular kunduzgi, tungi hamda fuqarolik va harbiy bo'linmalarga ajratilgan. Shuningdek, har bir organ o'z ma'lumotlarini tezlik bilan saltanat markaziga yetkazgan, davlat siri bilan bog'liq masalalar maxfiy kengashlarda, ikkinchi darajali masalalar saroyning ochiq kengashlarida muhokama qilingan, huquqbuzarliklarga nisbatan qat'iy chora-tadbirlar ko'rilgan. Amir Temur davrida huquqiy tartibot ishlariga ikki tomonlama mas'ullar tayinlangan. Har bir hududning ma'murlari bu ishga javobgar bo'lgan.

Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida sahibqiron Amir Temur davrida mamlakatda o'rnatilgan qonun-qoidalar hamda tartib intizom haqida "Uning siyosati o'rnatilgan kunlarda Movarounnaxrning eng chekka joylaridagina emas, balki Xitoy va Xutan chegarasidan Dehli va Kanbayit atroflarigacha, Bob ul-Avbobdan to Misr va Rum hududigacha bo'lgan yerlardan savdogarlar u yoqda tursin, bolalaru-beva xotinlar ham ipak matoli, oltin-kumush va eng zarif tijorat mollarini keltiradilar va olib ketadilar. Hech bir kimsa ularning bir doniga ham ko'z olaytira olmaydi va bir dirxamga ham ziyon yetkazmaydi".[6]

Mintaqalarda tinchlik va barkarorlikni saqlash ishlari, avvalo, shaxar hokimi – darug'alar zimmasiga yuklatilgan. Shuningdek, xar bir shahar va qishloqqa kutvollar tayinlangan bo'lib, ular xalqning tinch-osoyishtaligini qo'riqlashgan. Bordiyu hududda biror narsa yo'qolsa yoki o'g'irlansa, kutvollar javobgar bo'lib, ularga darug'alar kabi yo'qolgan molni to'lash majburiyati yuklangan. Yo'lovchilarni bir manzildan ikkinchi manzilga bexatar yetkazib qo'yish uchun zobitlar tayinlangan. Agarda yo'lda o'g'irlik yoki qotillik sodir etilsa, javobgarlik ularning zimmasiga yuklangan. Asaslar esa tungi qorovullar, qidiruv ishlari boshliqlari bo'lib, o'z xodimlari - posbonlar bilan ma'lum



hududlarga biriktirilib, fuqarolarning tinchligini ta'minlash va jinoyat ishlarini ochishda muhim o'rin tutganlar. Ichki ishlar organlari mansabdorlari yasag'liq deb atalgan, ular davlat va jamiyatning tinchligini saqlashga mas'ul bo'lib, jinoyatlarni ochishda muhim ro'l o'ynaganlar. Huquqni muhofaza qiluvchi amaldorlardan biri shixnalar deb atalgan, ular harbiy ma'murlar bo'lib, shaharlardagi tinchlikni saqlashga mas'ul sanalgan. Ular ham o'zlari boshqarayotgan hududlarning xavfsizligi, fuqarolarning xotirjamligini ta'minlashga mas'ul edi.[7] Ma'muriy tartibdagi huquqbuzarliklarni jazolash ham ularning vakolatiga kirgan. Agarda davlatga, shaxsga qarshi jiddiy jinoyatlar sodir etilsa, ular tegishli qoziliklarda ko'rilgan hamda qilmishlarga yarasha jazo tayinlangan. Saltanatda majburlov funksiyasini tashkil qilishdan asosiy maqsad, ommani qonunlarga xurmat ruhida tarbiyalash va jinoyatlarning oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarga jazo muqarrarligini odamlar ongiga singdirish, bu orqali davlat va jamiyatning tinchligini saqlash edi.

Amir Temur davrida huquqbuzarlik va jinoyatlarni ochishda haqiqatni aniqlash muhim ahamiyat kasb etgan. Amir Temur "Tuzuklar" da bu haqida shunday degan: "g'arazgo'y, nafsi buzuq, kimsalarning tuhmati bilan katta va kichik shaharlar aholisidan hech kimni jazolamasinlar. Faqat gunohi to'rt kishining guvohlik berishi bilan isbotlansa, gunohiga yarasha jazolasinlar. Amr etdimki, hech bir shahar va qishloqda odamlardan jon solig'i, uy solig'i olmasinlar. Sipohiylerden biron kishi raiyatning honadoniga zo'rlik bilan kelib tushmasin, raiyatning ot-ulovini tortib olmasin." [8] Demak, jinoyatga jazo berishda tuhmat, g'iybatlarga ishonib qolmaslik uchun u obdon o'rganilgan va to'g'ri so'z, halol to'rt kishining guvohligiga tayanilgan. "Tuzuklar" da ma'muriy tizimga oid juda ko'p qoidalar uchraydi. Jumladan, Sohibqiron hokimlarga kimningdir tuxmat gaplariga kirib, aholiga jarima solishni taqiqlaydi. Amir Temur davlatida jinoyatchiliklarni jazo qo'llashda sudlar ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ular davlat, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlarning oldini olishda, shuningdek, nizolarning adolatli yechimini topishda katta rol o'ynagan. Jinoyatlarning qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilishiga qarab jazolar belgilangan.

Amir Temur huquq-tartibot sohasida adolat va qonun ustuvorligi, sodir etilgan jinoyatga jazoning muqarrarligi tamoyiliga amal qilgan. Bu haqida Sharafiddin Ali Yazdiy shunday ma'lumot keltirgan: "Sohibqiron din avval holdakim, olamdagi viloyatlarning har birida bir podshox bor erdi va alarning muxolifat va munozi'atlari jixatidin musulmonlar ichida kub tashvish bor erdi. Va xech yerda amin va amonlik qolmaydur erdi. Va yullar o'g'ri va qaroqchi jixatidin bog'lanib erdi. Va hech musulmon hech sori borolmas erdi. Viloyatlarni zolimlarning eliklaridin qutqarib, adlu ehson bila orasta qildi. Va aning adlidan andoq bo'ldikim, agar birov bir tabaq oltun yo kumush boshiga kuyub yalguz saxroda Boxtardin Xovargacha borgay, xech kishi anga tik boqa olmas erdi. Ammo ul xolda kub yerlarni talab, asiru toroj qildi zarurat jixatidinkim, agar andoq qilmasa erdi, olam nizom topmas erdi". [9]

Sharafiddin Ali Yazdiy o'z asarida Amir Temur saltanatida biror kimsaga o'z manfaati yoki shaxsiy adovati tufayli zo'ravonlik qilinmagani, xatto yolg'iz o'tayotgan yosh bolalarning moliga xam birov ko'z olaytirolmaydigan darajada adolat va qonun ustuvorligiga erishganligini alohida ta'kidlab, uning bu ishlarining bosh sababi jinoyatga yarasha jazo bermoqlik bo'lganligini aytib o'tgan. Uning ta'kidlashicha, agar Soxibqiron



qattiq qo‘l siyosat yuritmasa va beboshlarni jazolamasa, mamlakatda tartib o‘rnatib bo‘lmaydi. Demak bundan ko‘rinib turibdiki, zo‘ravonlikka qarshi davlat murossasiz qarshi kurashmog‘i, unga nisbatan munosib jazo choralarini qo‘llamog‘i shartdir. Ana shundagina adolat va qonun ustuvorligiga erishish mumkin. Bejizga ham sohibqiron Amir Temur “Rosti-rusti ya’ni Kuch-adolatda” naqlini o‘z davlatining boshqaruvining asosiy tamoyili qilib olmaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Sohibqiron Amir Temur tuzuklarda: “Saltanatim martabasini to‘ra va tuzuklar asosida shunday saqladimki, uning ishlariga aralashishga hech kimsaning qurbi yetmasdi”[10] – deb adolat va qonun ustuvorligini alohida ta’kidlaydi. U qonun ustuvorligi va adolatni tarozining ikki pallasiday muvozanatda tutishga intildi, o‘z amirlari, amaldorlaridan xalqni kamsitmaslikni talab qildi.

Amir Temur davlatida zo‘ravonlik, sharob ichish, zino va boshqa jinoyatlar uchun eng ogir jazolar tayinlangan. “Tuzuklar” dan anglashiladiki, shariatga bog‘liq bo‘lmagan jinoyatlarga “Yasoq qonunlari” bo‘yicha jazo berilgan. Unga muvofiq va o‘rta asr an‘analariga hos bo‘lgan barmoq, qo‘l, burun, quloq kesish, ko‘zga mil tortib ko‘r qilish, darra va qamchi bilan urish, sazoyi qilish kabi jazo turlari qo‘llanilgan.

Amir Temur davlatida mard, jasur, ishbilarmon va tadbirkor kishilar yuqori darajada xurmat-e’tiborda bo‘lgan, jazo borasida ham ularga yengilliklar yaratilgan. Sohibqiron aytadiki: “Botir kimsaning gunohi isbotlanganidan keyin undan jarima olsalar, so‘ng yana darra bilan urmasinlar” [11] “Tuzuklar”da biror kishining aybi isbotlanganida unga nisbatan faqat bitta jazo chorasini qo‘llash, agar jarima solinsa, darra bilan urmaslik, darra bilan urilsa, jarima solmaslik, ya’ni “bir jinoyatga faqat bir jazo” prinsipi mustaxkamlab qo‘yilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mansabdorlar tomonidan sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlarga jazo tayinlash alohida nazorat qilingan. Mansabdorlar tomonidan sodir etilgan qilmish turiga ehtiyotsizlik yoki qasddan qilinganiga ahamiyat berilgan va shunga yarasha jazo tayinlangan. Agarda qishloq oqsoqoli va shahar ulug‘lari kichikroq darajadagi odamga zulm qilsalar, o‘sha zulmga yarasha, har kimning sharoitiga ko‘ra jarima solingan, ya’ni fuqarolarning ijtimoiy turmush tarzi e’tibordan chetda qolmagan.

Davlat amaldorlarining poraxo‘rligi va amaldagi siyosatga qarshi qaratilgan jinoyatlar eng xavfli jinoyatlardan hisoblangan. Ular bugungi kundagi korrupsiya va qo‘poruvchilik jinoyatiga to‘g‘ri keladi. Bunday jinoyatlar uchun qattiq jazo tayinlangan. Davlatning majburlov funksiyasi ularni tag-tomiri bilan yo‘qotish, davlatdagi barqarorlikni muvofiqlashtirishga qaratilgan edi. Amir Temur: “Adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini uzimdan rozi etdim. Gunohkorga ham, begunohga ham raxm-shafiqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim”, дея таъкидлайди.[12]

Xulosa o‘rnida shuni takidlab o‘tish joizki, sohibqiron Amir Temur saltanatida chiqarilgan har bir farmon yoki qaror mamlakatda jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikni oldini olish, oddiy xalqning turmush darajasini yaxshilash hamda mamlakatda ilmu-ma’rifatni rivojlantirishga xizmat qilgan. Aholining tinchligi va osoyishta hayotini ta’minlash, jamiyatda aholini qonunga itoatkor ruhda tarbiyalash hamda fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifadir.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 7 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // "Xalq so'zi", 2019 yil 8 dekabr / <https://nrm.uz/> (murojaat sanasi 21.02.2022 yil).
2. Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyati: Darslik / I.Ismailov, M.Z.Ziyodullayev-T.: O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi. 2019. -336 b/10-b
3. Temur tuzuklari / B.Abduhalimov va boshq. Forscha matndan A.Soguniy va X.Karomatov tarj. — Toshkent: "O'zbekiston", 2019. — 137 bet
4. Muxammadjonov A.R. Temur va Temuriylar ... - B. 121
5. Temur tuzuklari / B.Abduhalimov va boshq. Forscha matndan A.Soguniy va X.Karomatov tarj. — Toshkent: "O'zbekiston", 2019. — 139 bet
6. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" .:T 1996 yil. "O'zbekiston " 20-21 bet.
7. Amir Temur davlat boshqaruvi. Monografiya. Sh.Uljaeva. -T.: Akademnashr, 2017. — 108 b
8. Temur tuzuklari / B.Abduhalimov va boshq. Forscha matndan A.Soguniy va X.Karomatov tarj. — Toshkent: "O'zbekiston", 2019. — 138 bet
9. Amir Temur davlat boshqaruvi. Monografiya. Sh.Uljaeva. -T.: Akademnashr, 2017. — 120 b.
10. Temur tuzuklari / B.Abduhalimov va boshq. Forscha matndan A.Soguniy va X.Karomatov tarj. — Toshkent: "O'zbekiston", 2019. — 88 bet
11. Temur tuzuklari / B.Abduhalimov va boshq. Forscha matndan A.Soguniy va X.Karomatov tarj. — Toshkent: "O'zbekiston", 2019. — 106 bet
12. Temur tuzuklari / B.Abduhalimov va boshq. Forscha matndan A.Soguniy va X.Karomatov tarj. — Toshkent: "O'zbekiston", 2019. — 75 bet